



PROCEEDINGS

of the MMIT'26 International Conference

**TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARI
VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR**

**MODERN METHODS AND
INNOVATION TECHNOLOGIES IN
EDUCATION**

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
ОБРАЗОВАНИИ**

06 May 2026, Tashkent, Uzbekistan www.mmit.tiue.uz

**MAQOLALAR TO'PLAMI
СБОРНИК СТАТЕЙ**

**“BOOKMANY PRINT”
Tashkent 2026**

UO'K 370.1

KBK 74.00

T 17

Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalar [Matn]: xalqaro konferentsiya to'plami / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.I.Baydjanov – Toshkent: Bookmany print, 2026. – ***** b.

Mazkur to'plam Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligining «2026-yilda xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash» to'g'risidagi 2026-yil “16”-yanvardagi 11-sonli buyrug'iga asosan o'tkazilgan “Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

Bosh muharrir:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va mantiq kafedrası professori, f.f.n. **Karimov Rahmat Rahmonovich**

TIUE Ta'lim va ta'lim jarayonlarini boshqarish kafedrası mudiri, f.f.d. (DSc) **Bekbaev Rauf Rustamovich**

TIUE Axborot texnologiyalari va Matematika kafedrası professori, f.-m.f.d. (DSc) **Eshmatov Baxtiyor Xasanovich**

Ushbu to'plam “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2026 yil 15 iyuldagi 6-sonli majlis qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-139-4

© Tashkent International University of Education, 2026.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2026.

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Omonova Farangiz Rustam qizi,

Qarshi davlat universiteti

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

ofarangiz802@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.230

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv platformalar va multimedia vositalari orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish usullari yoritilgan. Tadqiqot natijasida raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, kreativ fikrlash, boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar.

METHODS FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Farangiz Rustam qizi Omonova,

Student of Primary Education Department, Faculty of Pedagogy

Karshi State University

ofarangiz802@gmail.com

Abstract. This article analyzes the role of digital educational technologies in developing the creative thinking of primary school students. It also highlights methods for forming students' independent and creative thinking skills through modern pedagogical approaches, interactive platforms, and multimedia tools. As a result of the research, the effectiveness of digital technologies in enhancing educational quality is substantiated.

Keywords: digital education, creative thinking, primary education, innovative technologies, interactive methods

Kirish

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning dunyoqarashi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Shu sababli ta'lim jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashtirish va axborotlashgan jamiyat sharoitida an'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati ortib bormoqda. Raqamli ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga axborotni tezkor qabul qilish, mustaqil izlanish olib borish, tahlil qilish hamda o'z fikrini erkin ifodalash imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida kreativ fikrlash kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Kreativ fikrlash bu muammolarga noodatiy yondashish, yangi g'oyalarni ilgari surish va mavjud bilimlardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali ularning intellektual salohiyatini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirish mumkin. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarning nafaqat bilim olish faoliyatini faollashtiradi, balki ularning kommunikativ kompetensiyalarini ham

rivojlantiradi. Interaktiv platformalar, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi hamda darslarning samaradorligini oshiradi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'zni va samaradorligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ortiqova.N ham o'z maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish usullari haqida so'z yuritadi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy va interaktiv usullar keng qo'llanilmoqda. Bu jarayonda o'qituvchilar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, ularni yanada rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun turli amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va o'yin metodlarini qo'llash samarali natijalar beradi. O'quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantirish uchun ayniqsa rasm chizish, hikoya qilish, voqealar yaratish kabi faoliyatlar yordam beradi. Masalan, rasm orqali o'z fikrini ifoda etish o'quvchilarni o'zlariga ishonitirishga, yangi fikrlarni amalga oshirishga undaydi. Yana bir samarali usul esa, ertaklar asosida yangi g'oyalarni yaratishga undovchi mashqlarni o'tkazishdir. Bu usul bolalarda tasavvur va obrazlar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi[1].

J.Gilfordning fikriga ko'ra, kreativ tafakkur ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va rivojlanishdan iborat. Bu sifatlarni tegishli pedagogik qo'llab-quvvatlash va erkin, ammo yo'naltirilgan faoliyat sharoitida rivojlantirish mumkin. Vigotskiy va Davidovlar kreativ salohiyatni rivojlantirishda muhit va birgalikdagi faoliyatning ahamiyatini ta'kidlaganlar. Raqamli texnologiyalar ushbu muhit chegaralarini kengaytirish imkonini beradi: bolalar vizual, matnli, ovozi formatlarda yaratadilar, sinab ko'radilar, o'zgartiradilar, tadqiq qiladilar[2]. Ilmiy manbalarda kreativlik shaxsning innovatsion fikrlashi, muammolarga noodatiy yondashuvi hamda yangi g'oyalar yaratish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar kreativ salohiyatni shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar, raqamli vositalar va o'yinli yondashuvlarning samaradorligini alohida ta'kidlaydilar. Xususan, "aqliy hujum", loyiha metodi, case-study, TRIZ texnologiyasi hamda gamifikatsiya usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, virtual reallik va onlayn platformalar kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Natijalar va muhokama

Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqitirish.
- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi[4].

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash o'quvchilarga ma'lumotni tahlil qilish, uning mohiyatini chuqur anglash va xatolarni aniqlash imkoniyatini beradi. Raqamli vositalar bu jarayonni quyidagi usullar orqali qo'llab-quvvatlaydi:

- Interaktiv testlar va viktorinalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazib, noto'g'ri yoki noaniq javoblarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.
- Onlayn munozaralar va forumlar o'quvchilarga o'z fikrlarini bildirish va boshqa o'quvchilar bilan bahslashish imkoniyatini taqdim etadi. Bu orqali ular fikrlarini asoslash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Dasturiy ta'minotlar va ma'lumotlar tahlili vositalari yordamida o'quvchilar turli muammolarni hal qilishda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni o'rganadi, bu esa tanqidiy fikrlashni oshiradi. Kreativ fikrlash va tanqidiy yondashuvni baholash uchun turli metod va uslublar mavjud. Kreativ tafakkur darajasini baholash uchun Torrance testlari, Guilfordning divergent fikrlash ko'rsatkichlari, o'ziga xoslik, moslashuvchanlik, rivojlantirish qobiliyatlari kabi mezonlar ishlatiladi. Tanqidiy fikrlashni baholashda esa Bloom taksonomiyasi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari va argumentatsiya sifatiga asoslangan baholash tizimlari qo'llaniladi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining metodik yondashuvlari

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ba'zi metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Blended learning (aralash ta'lim): an'anaviy ta'lim va raqamli vositalarni birlashtirish orqali o'quvchilarga kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.
- Gamifikatsiya: o'quv jarayonini o'yinga aylantirish orqali o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi va ular yangi ma'lumotlarni o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.
- Personalizatsiya: o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan raqamli resurslar orqali ta'lim berish, bu esa o'quvchilarning individual rivojlanishiga yordam beradi[5].

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda kreativ salohiyatni rivojlantirish ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bilan esa pedagogik metodlarni yangilash va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim tizimini yaratish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilash mumkin. Shuning uchun, ta'limda raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash, ta'lim jarayonining sifatini va samaradorligini oshiradi. Raqamli savodxonlik tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologiya bilan shug'ullanish ko'pincha o'quvchilardan ma'lumotni tahlil qilishni, qaror qabul qilishni va muammolarni hal qilishni talab qiladi. Oddiy dasturni kodlash, onlayn tadqiqot olib borish yoki raqamli kontent yaratish, duch keladigan ma'lumotlar va bajaradigan vazifalar haqida tanqidiy fikrlashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar bebahodir, ular izlanuvchan, tahliliy va murakkab muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan fikrlashni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ortiqova, N. E. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va bu jarayonning ta'limdagi ahamiyati. ZDPP, 3(11), 63–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14180339>

2. Dauletmuratova, B. M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishda raqamli savodxonlikning tutgan o'rni. ZDIFT, 4(11), 135–138. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478203> <https://zenodo.org>
3. Kalandarova, N. B., & Abduraxmonova, G. R. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini shakllantirish texnologiyasi. PEDAGOGS International Research Journal. ISSN 2181-3027.
4. Tursunova, Z. A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatish zamonaviy usullari. Worldly Knowledge nashriyoti. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/4081>
5. Azimqulov, S. N. (2025). Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash va tanqidiy yondashuvni shakllantirish. In International Scientific and Practical Conference “New Methods and Innovations in the Integration of Disciplines of Mathematics and Information Technology” (April 18, 2025). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15281701>